

XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDAGI ARXAIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Allaberganova Sevinchoy

UrDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillarning tilga, xususan, uning leksik qatlamiga ta’siri yoritilgan. Ayniqsa, shevalar tizimidagi arxaizmlar va istorizmlar til tarixini, xalqning turmush tarzini, madaniyatini o‘rganishda muhim manba ekanligi ta’kidlanadi. Xorazm o‘g‘uz lahjasida uchraydigan ayrim eskirgan so‘zlar misolida ularning semantik mazmuni, leksik va funksional xususiyatlari tahlil etiladi. Ushbu maqola shevalardagi arxaik birliklarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish zaruratinini asoslaydi va bu borada olib borilayotgan davlat siyosati yoritiladi.

Kalit so‘zlar:

Til va jamiyat, arxaizm, istorizm, Xorazm shevalari, o‘zbek tili, dialektologiya, leksik qatlam, tildagi o‘zgarishlar, madaniy meros, lahja tadqiqoti.

Til - ijtimoiy hodisa. Shu sababdan ham, ayni bir til o‘zining iste’molchilar bo‘lgan jamiyat bilan mavjud va jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, umuman, har qanday o‘zgarish tilda o‘z aksini topadi. Ayniqsa, bunday o‘zgarishlar tilning leksik qatlamida eng ko‘p namoyon bo‘ladi: yangi so‘zlar iste’molga kiradi va ayrim so‘zlar eskirib, muomaladan chiqa boshlaydi. Bu holat nafaqat adabiy til uchun, balki shevalar uchun ham xos. Shu sababdan tilni o‘rganish jarayonidagi asosiy bosqich shevalarni tadqiq qilishdir. Bugungi kunda Prezidentimiz SH. Mirziyoyev tomonidan yurtimizda til siyosatini takomillashtirishda va shevalarni o‘rganishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan bir qator hujjatlar imzolangan. Jumladan, yurtboshimizning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va “Mamlakatimizda o‘zbek tilini

yanada rivojlantirish va til siyoysatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmonlari dialektologik tadqiqotlar salmog`ini yanada kengaytirishda, bu borada qilinayotgan ishlar sur’atini oshirishda asos vazifasini bajarmoqda. Shevalarni tadqiq qilish jarayonida har bir shevaning o`ziga xos jihatlari: leksik, semantik, fonetik va morfologik xususiyatlari namoyon bo`ladi.

Shevalarni o`rganishda har bir qatlam alohida ahamiyatga ega. Biroq arxaizm va istorizmlar (qo‘llanilish davriga ko‘ra, eskirgan so‘zlar) bu jarayonda o`ta darajada sezilarli o`rin tutadi. Negaki ular tildagi so`zlarning qanday paydo bo`lganligi, kelib chiqishi, qanday ma’no anglatishidan tortib, xalqning madaniyati, moddiy holati, diniy va siyosiy jarayonlar haqida ma’lumot beruvchi eng muhim manbadir. Bu borada Xorazm shevalari O‘zbekistonning boy dialektal tizimlaridan biri bo`lib, o`ziga xos lug`aviy tarkib va semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Xorazm shevalaridagi ayrim eskirgan so‘zlarni tahlilga tortamiz.

Arxaizmlar – tilda faol foydalanilmaydigan, tarixiy jarayonlar natijasida eskirgan yoki biror so`z bilan almashtirilgan leksik birliklardir. Ma’lumki, tildagi yangi so‘zlar hamisha ham yangi tushunchalarni anglatmaydi, aksincha, tilda mavjud biror tushunchaning yangi nomi sifatida muomalaga kirishi mumkin. Shundan so‘ng, bu tildan foydalanuvchi jamiyat ayni tushuncha uchun qaysi so‘zni ko‘proq ma’qul deb bilsa, ya’ni muloqotda ko‘p foydalansa, shu so`z tilda qoladi, boshqasi esa sekin-asta iste’moldan chiqib ketadi. Xorazm o‘g‘uz lahjalariga taalluqli arxaizmlar voha tarixi, tili, madaniyati, xalq hayoti, iqtisodiy, siyosiy, diniy vaziyatlar haqida to`liq ma’lumot olishga yordam beradi. Bu jihatdan ularni ham lingvistika, ham etnografiya, ham etimologiya sohasining muhim manbasi deb atay olamiz. Quyida Xorazm o‘g‘uz lahjalariga taalluqli bir nechta so‘zlar izohini e’tiboringizga havola qilamiz.

—**Axtixanā** – molxona. Bu so`z Xorazmda qishda chorva mollari saqlanadigan, paxsadan yoki xom (pishgan) g`ishtdan qurilgan, bir yoki ikki xonali imoratga nisbatan qo‘llangan. Ma’lumki, Xorazm ob-havosi juda quruq va yog`ingarchilik kam. Shu boisdan qishda havo qattiq sovuq, yozda esa juda issiq bo`ladi. Bunday paytlarda chorva mollarini ochiq havoda qoldirish xavfli

bo`lganligi sababli aholi ularni maxsus molxonalarda boqishgan. Ba`zan bunday joylarda kuzgi hosil: sabzavotlar, poliz ekinlari va hatto mevalar ham saqlangan (*Güzäkdä kärtışkäni ziyadini axtıxanāğa gırızvädik, baharäçä heç özgärmäyän axır*).

—**Liku** – likopcha. Ovqat tortiladigan idishlar qadimda ham hozirgi kabi katta-kichikligiga qarab turlicha nomlangan. “Liku” – bu hajm jihatdan **badyä** (adabiy tilda “lagan”) dan kichik bo`lgan, cheti biroz ko`tarilgan, tubi keng, yassi oshxona idishiga nisbatan ishlatilgan. Bu so`z Xorazmning ayrim hududlarida keksa avlod nutqida hali ham uchrab turadi, biroq juda kam. (*Anavi boş likuni uzat maňa, etini saljaqman*).

—**Käşkat** – o`roq. Dehqonlar va hunarmand ustalar nutqida qo`llangan bu so`z turli boshoqli ekinlar, beda, pichan va o`tlarni o`rish uchun ishlatiladigan, beli buzik, o`tkir tig`li temirdan yasalgan dehqonchilik mehnat quroli ma`nosini anglatadi. Bu ish quroli aynan qaysi ekin uchun moslashganligiga qarab ham bir qancha turlarga ajratiladi va nomlari ham turlichadir. Masalan, mayda ekinlarni begona o`tlardan tozalashda “*käşkat*” ishlatilgan bo`lsa, sholi, bug`doy kabi donli ekinlarni yig`ishtirib olishda “*çalğır*”dan foydalanishgan. (*Atızdäki sämizotlanı oraman däb käşkat älimä otib getdi*).

—**Sülyi** – sochiq. Bu leksik birlik yuz-qo`llarni yoki idish-tovoqlarni uchun ishlatiladigan buyum. (*Äkäň älini yuvğannan keyin sülyini appar*).

—**Röpäk I** – ro`molcha. Kichkina ro`mol, dastro`mol. (*Änäm taza röpäk tikib bärđi*).

—**Röpäk II** – etak. Matodan paxta terish uchun maxsus tikilgan, bir tomoni bo`yinga osib, bir tomoni belga bog`lab olinadigan buyum. (*Bi kartanı paxtası zor äkän, därröm ikki röpäk doldirdim*).

—**Duvaq** – qopqoq. Bu so`z Xorazm shevasida “qozon qopqog`i” ma`nosini anglatgan, biroq bugungi kunda “idish, sandiq, yashik va shu kabi narsalar og`zining ochilib-yopilib turadigan, bekituvchi qismi” ma`nosini anglatuvchi

qopqoq so`zi uning iste'moldan chiqishiga sabab bo`lgan. Poloni däminä qoyğanda duvaqınıń sırqizib dur).

—**Durkat** – qaychi. Yupqa narsalarni, mato, qog'oz va shu kabilarni kesish uchun ishlatiladigan, o`rta yeridan bir-biriga vint bilan biriktirilgan ikki tig`dan iborat dastali asbob. (*Bar, äppiyiňnän mäni durkatımnıń äkkäl*).

—**Susaq** – cho'mich. Suyuq ovqatni shopirish va suzish uchun ishlatiladigan, uzun dastali ro`zg`or asbobi. (*Şorvanıń kop salma, biy susaqdan sal, yetmin otrmasın*).

—**Äväräk** – sirg'a. Quloqqa taqiladigan bezak buyum, isirg'a, zirak. Xorazm shevalarida bu so`z dumaloq shakldagi, oltin yoki kumushdan quyma sharchalari bo`lgan zirakka nisbatan ishlatilgan. (*Eşitdiňmi, dayim biyimä äväräk äppäribdi*).

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, jamiyat bilan bog‘liq o‘zgarishlarning barchasi tilda o‘z aksini topadi. Buning natijasida til sathida yangi va eskirgan so‘zlar qatlami vujudga keladi. Yangilik va eskilik bo‘yog‘i nafaqat adabiy tilga, balki shevalarga ham xosdir. Shevalardagi arxaizmlarni o‘rganish xalqning tarixi, madaniyati, moddiy holati va shu kabilarni aniqlashga yordam beradi. Tilni va xalqning o‘tmishini o‘rganishda shevalarning o‘rni beqiyos, shuning uchun bu boradagi tadqiqotlarni kengaytirish juda muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Mirziyoyev, Sh.** (2017). *O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* Farmon. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2. **Mirziyoyev, Sh.** (2018). *Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* Farmon. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
3. **Xalilov, A.** (2010). *O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. **Ziyodov, M.** (2015). *O'zbek tilining dialektologiyasi: Nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. **Juraev, K.** (2002). *Shevalar va tildagi o'zgarishlar*. Toshkent: Sharq.
6. **Abdullaeva, T.** (2016). *Tilda eskirgan so'zlar va ularning etimologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
7. **Ismoilov, N.** (2013). *Xorazm shevalari: Leksik, semantik va fonetik xususiyatlar*. Xorazm: Xorazm Universiteti.
8. **Asimov, S.** (1986). *O'zbek tilining tarixiy leksikasi*. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.